



## YOSHLARDA BAG'RIKENGLIK TARBIYASI

*Ilmiy maslahatchi: Samatov Xurshid Ulmasjonovich*

*Ilmiy maslahatchi Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti Samarqand filiali f.f.d. dotsent*

**Qaxxorov Azamat Anvar o'g'li**

*Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti Samarqand filiali talabasi*

*E-pochta: [azamatqahhorov707@gmail.com](mailto:azamatqahhorov707@gmail.com)*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada yoshlarda bag'rikenglik madaniyatini shakllantirishda falsafiy metodologiyaning ahamiyati, xususan, islomiy bag'rikenglik an'analari misolida ko'rib chiqiladi.*

*Tadqiqotda insonparvarlik jarayonida mashoyixlarning axloqiy ta'limotlari shunchaki tarixiy yodgorlik emas, balki yoshlar shaxsini transformatsiya qiluvchi jonli falsafiy tizim ekanligi asoslab berilgan.*

*Maqolada bag'rikenglikning ilmiy-ta'limiy jihatlari, xususan, "komil inson" g'oyasi atrofida birlashgan ontologik va aksiyologik qarashlar tahlil qilinadi. Al-G'azoliyning nafs psixologiyasi, Ibn Arabiyning borliq birligi haqidagi mushohadalari, Jaloliddin Rumiyning bag'rikenglik falsafasi hamda Bahouddin Naqshbandning "ijtimoiy faol ma'naviyat" tamoyillari qiyosiy o'rganilgan.*

*Muallif mashoyixlarning shogirdlarni tarbiyalashda qo'llagan o'ziga xos metodlari — suhbat va tafakkur kabi usullarning zamonaviy pedagogika va psixologiya bilan mutanosib jihatlari ochib beradi.*

*Maqolaning xulosaviy qismida ushbu ma'naviy merosdan zamonaviy ta'lim tizimida yosh avlodni axloqiy-ruhiy jihatdan barkamil, globallashuv xavflariga chidamli va milliy o'zligini anglagan shaxs sifatida shakllantirishda foydalanishning amaliy imkoniyatlari va nazariy asoslari yoritilgan.*



**Kalit soʻzlar:** bagʻrikenglik, falsafiy yondashuv, maʼnaviy meros, mashoyixlar, axloqiy tarbiya, komil inson, Al-Gʻazoliy, Naqshbandiya, ruhiy kamolot, gnoseologiya, zamonaviy taʼlim.

**Аннотация:** В данной статье рассматривается значение философской методологии в формировании культуры толерантности у молодежи, в частности, на примере традиций исламской веротерпимости.

В ходе исследования обосновывается, что этические учения великих наставников в процессе гуманистического воспитания являются не просто историческим памятником, а живой философской системой, трансформирующей личность молодого человека.

В статье анализируются научно-образовательные аспекты толерантности, в частности онтологические и аксиологические взгляды, сосредоточенные вокруг идеи «совершенного человека». Проведен сравнительный анализ психологии нафса Аль-Газали, размышлений Ибн Араби о единстве бытия, философии любви и терпимости Джалаладдина Руми и принципов социально активной духовности Бахауддина Накиббанда.

Автор раскрывает специфические методы воспитания учеников, применявшиеся наставниками, такие как беседа и размышление, и их соответствие современной педагогике и психологии.

В заключительной части статьи освещаются практические возможности и теоретические основы использования данного духовного наследия в современной системе образования для формирования молодого поколения как духовно-нравственных личностей, устойчивых к вызовам глобализации и осознающих свою национальную идентичность.

**Ключевые слова:** толерантность, философский подход, духовное наследие, машойихи, нравственное воспитание, совершенный человек, Аль-Газали, Накиббандия, духовное совершенство, gnoseология, современное образование.



**Abstract:** *This article examines the significance of philosophical methodology in shaping a culture of tolerance among youth, specifically focusing on the traditions of Islamic humanism.*

*The research posits that the ethical teachings of great masters in the process of humanistic upbringing are not merely historical artifacts, but rather a dynamic philosophical system capable of transforming the persona of young people.*

*The paper analyzes the scholarly and pedagogical dimensions of tolerance, particularly the ontological and axiological perspectives centered on the concept of the "Perfect Man". A comparative study is conducted on Al-Ghazali's psychology of the nafs, Ibn Arabi's contemplations on the unity of being, Jalaluddin Rumi's philosophy of tolerance, and Bahauddin Naqshband's principles of socially active spirituality.*

*The author elucidates the specific methods utilized by masters in mentoring disciples—such as spiritual conversation and reflection—highlighting their intersections with modern pedagogy and psychology.*

*The concluding section outlines the practical potential and theoretical foundations for integrating this spiritual heritage into the contemporary education system to cultivate a younger generation that is ethically and spiritually resilient, capable of withstanding the risks of globalization, and deeply conscious of their national identity.*

**Keywords:** *tolerance, philosophical approach, spiritual heritage, mashayikh, ethical education, the Perfect Man, Al-Ghazali, Naqshbandiya, spiritual perfection, epistemology, modern education.*

## ASOSIY QISM

Ma'naviy merosni o'rganishda falsafiy yondashuv shunchaki o'tmish faktlarini yig'ish emas, balki ajdodlarimiz qoldirgan intellektual xazinaning tub mohiyatini bugungi kun muammolari bilan bog'lash demakdir.

Ayniqsa, bugungi globallashuv va mafkuraviy poligonlar kuchaygan davrda yoshlar ongida bag'rikenglik (tolerantlik) madaniyatini shakllantirish ijtimoiy barqarorlikning asosiy shartiga aylandi.



Bag'rikenglik - inson, olam va jamiyat o'rtasidagi munosabatlarni uyg'unlashtiruvchi, turli dunyoqarashlarga hurmat bilan qarashni o'rgatuvchi tizimdir. Uning markazida turuvchi "Kamil inson" g'oyasi shaxsni nafaqat intellektual, balki ma'naviy-axloqiy jihatdan yuksaltirishni maqsad qiladi.

Ma'naviy merosimizning yirik namoyandalari bag'rikenglikning fundamental asoslarini o'z asarlarida tizimlashtirganlar. Masalan, Abu Homid al-G'azoliy o'zining "Ihyou ulumid-din" asarida inson nafsini hayvoniy ehtirolardan insoniy fazilatlarga ko'tarish metodikasini yaratdi.

Uning falsafasida bag'rikenglik - bu ruhning sog'lomligi va kibrdan xalos bo'lish natijasidir. Jaloliddin Rumiya esa insoniyatga muhabbat va cheksiz bag'rikenglik falsafasini taqdim etib, insonni diniy yoki milliy ayirmachilikdan yuqori turishga, ilohiy ishq orqali barcha insonlarni birdek ko'rishga chaqirdi. Uning "Masnaviy"si bugungi kunda ham yoshlarni stress va ma'naviy inqirozlardan asrashda muhim metodik manba bo'lib xizmat qiladi.

Bahouddin Naqshband asos solgan "Naqshbandiya" tariqati esa amaliy bag'rikenglikning cho'qqisidir. "Dil ba yoru, dast ba kor" tamoyili insonni jamiyat ichida bo'lib, halol mehnat qilib, o'zgarlar haqini hurmat qilib yashashga o'rgatadi.

Bu falsafa yoshlarni dunyodan uzilib qolishga emas, balki ijtimoiy mas'uliyatli, bag'rikeng va mehnatsevar bo'lishga undaydi. Bunday yondashuv jamiyatda loqaydlik va axloqsizlik kabi illatlarning oldini olishda eng kuchli ma'naviy qalqondir.

Mashoyixlar qo'llagan "Ustoz-shogird" an'anasi bugungi pedagogika uchun ham gumanistik namuna bo'la oladi. Unda murshid (ustoz) shogirdiga nafaqat bilim beradi, balki shaxsiy namunasi va ruhiy ta'siri orqali unda empatiya, sabr va bag'rikenglik xarakterini shakllantiradi.

Bu metodologiya faqat quruq ma'lumot berishga asoslangan ta'lim tizimidan farqli o'laroq, o'quvchining ruhiyatini boyitishni ustuvor deb biladi. Bugungi yoshlarda "ma'naviy immunitet" hosil qilish, ularni yot g'oyalarga nisbatan chidamli qilishda ushbu merosning o'rni beqiyosdir.



## XULOSA

Birinchidan, bag'rikenglik tarbiyasi yoshlarni faqat tashqi qoidalar bilan emas, balki ichki anglash va qalb pokligi orqali tarbiyalashni maqsad qiladi. Al-G'azoliy va Rumiy kabi mutafakkirlarning qarashlari shuni ko'rsatadiki, haqiqiy tolerantlik - bu nafsni jilovlash natijasidir.

Ikkinchidan, tasavvufiy merosning metodologik ahamiyati shundaki, u nazariya va amaliyotni bir-biridan ajratmaydi. "Dil ba yoru, dast ba kor" tamoyili zamonaviy yoshlar uchun jamiyat ichida ma'naviy yuksaklikni saqlash strategiyasidir.

Uchinchidan, mashoyixlarning tarbiya usullari (suhbat, shaxsiy namuna) zamonaviy ta'lim tizimini insonparvarlashtirish uchun poydevor bo'la oladi. Bu yondashuv yoshlarda bag'rikenglikni milliy g'oyamizning mustahkam poydevori sifatida shakllantirishga xizmat qiladi.

## ADABIYOTLAR

1. Abu Homid al-G'azoliy. Ihyou ulumid-din. – Toshkent: "Movarounnahr", 2021.
2. Jaloliddin Rumi. Masnaviyi ma'naviy. – Toshkent: "Sharq", 2005.
3. Bahouddin Naqshband tariqati tamoyillari (Rashahotu aynil-hayot). – Toshkent, 2004.
4. Komilov Najmiddin. Tasavvuf. – Toshkent: "Movarounnahr", 2009.
5. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. – Toshkent: "O'zbekiston", 2021.
6. Sul'tonov X. Ma'naviy meros va zamonaviylik. – Toshkent: "Akademiya", 2010.